

## **O'ZBEKISTON SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI TIMSS XALQARO BAHOLASH DASTURIGA TAYYORLASH.**

**Dilfuzaxon Qosimova Shavkatovna**

Farg'ona viloyati Farg'ona shahar

29-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Ziyodaxon Ortiqova Otajonovna**

Farg'ona viloyati Farg'ona shahar

29-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Bu maqola yurtimizda yoshlar uchun innovatsion ta'lif yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan TIMSS test dasturi haqida. Unda bu tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi ta'lif sohasiga kirib kelishining sabablari aytilgan. Bu tadqiqot 2023-yilga mo'ljallangan. Bizning davlatimiz bu loyihada 1-marta ishtiroy etadi. Shu sababli unga alohida ishtiyoy bilan tayyorgarlik ko'rish zarur. Chunki rivojlangan davlatlar aynan xalqaro tadqiqotlarda yuqori ko'rsatkichga ega bo'lishadi. Biz ham Koreya Respublikasi o'qitish tizimidan zamonaviy tizim sifatida foydalanyapmiz. Ishonamanki, barcha xalqaro tadqiqotlarda o'zimizning yuqori natijamizga erishishimiz kerak

**Annotation:** This article is about the importance of TIMSS testing system in the innovative education. The reason of intending to this test in the educational sector of the Republic of Uzbekistan. It is targeted for 2023 year. Our country will attend to this test for the first time. So that, we should prepare hard for this system. Because the developed countries have great indicators on the international projects. We also use the education system of the Republic of Korea as a modern system. Surely, we should achieve best results on international projects.

**Kalit so'zlar:** tadqiqot, matematika va tabiiy fanlar, IEA rahbariyati.

**Key words :** project, mathematic and natural sciences, the leadership of IEA.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilar bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lida xalqaro tajribalarni o'rganish mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'lifi tizimida ta'lif sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to'g'risidagi chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-soni qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markaz tashkil etildi. Shu bilan birga, ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtiroy etish vazifalari belgilandi

Ushbu qaror asosida PIRLS, TIMSS, PISA, TALIS xalqaro tadqiqotlarini O'zbekistonda joriy etilishi belgilab qo'yilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarni joriy etish maqsadida Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat

inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilgan.

Ushbu loyiha o’quvchi-yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko’nikmalari, egallagan bilimlarini hayotda qo’llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va keyinchalik bu ko’nikmalar rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotlar doirasida O’zbekiston Respublikasi o’quvchi-yoshlarining savodxonlk darajalari ilk bor sinab ko’rilar ekan, bunga o’ta mas’uliyat bilan tayyorgarlk ko’rish talab etiladi. Buning uchun xalqaro tadqiqotlar talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tajriba sinovlar o’tkazish, o’quv jarayonlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilib borish orqali o’quvchilarda maxsus ko’nikmalarni rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

TIMSS xalqaro tadqiqotining asosiy vazifasi maktabning matematika va tabiiy fanlar ta’limi sifatiga solishtirma baho berish.

Har 4 yil davomida 4-8-sinf o’quvchilarining ta’lim yutuqlariga baho berib boriladi va shu bilan birga, nafaqat ularning bilim va ko’nikmasi, balki ularning ushbu fanlarga bo’lgan munosabati, qiziqishi hamda ta’limga bo’lgan motivatsiyasini solishtirishga imkon beradi. Tadqiqotning asosiy rejassi : 4 yil davomida 4-sinf o’quvchisi 8-sinfga yetgunga qadar uning matematika va tabiiy fanlar bilimining natijalari kuzatib boriladi. Shu yo’sinda maktabning boshlang’ich va yuqori sinf o’quvchilarining bilim yutuqlarining monitoring amalga oshirladi.

Mazkur xalqaro baholash dasturlari va ular doirasidagi tadqiqotlar Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ( OECD ), Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi ( IEA ) tomonidan muayyan davriylik asosida dunyo mamlakatlari bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Endilikda, TIMSS-2023 xalqaro dasturida qatnashishga kirishildi. Bu borada IEA tashkilotining “Xalqaro matematik va ilmiy tadqiqotlar ( TIMSS ) 2023 tendensiylarida qatnashish uchun rasmiy taklifi “ ga muvofiq O’zbekistonning TIMSS dasturida ilk marotaba qatnashishim masalasida Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi o’rtasida olib borilgan muloqotlar asosida IEA rahbariyatining dastlabki roziligidagi erishildi.

IEA rahbariyati O’zbekistonning ushbu tadqiqotda qatnashishidan mamnun ekanligini aytib, O’zbekistonning ta’lim sharoitiga TIMSS ning qaysi turi mos kelishi haqida maslahatlar berdi. Bundan tashqari, IEA 2021-yil fevral oyida Germaniyaning Gamburg shahrida o’tkazilishi rejalashtirilayotgan milliy tadqiqot koordinatorlarining birinchi yig’ilishiga taklif qildi va Boston kolleji mutaxassislari bilan turli xil baholash modellarini muhokama qilish, tadqiqotlar yo’nalishlarining afzallik va kamchiliklari haqida muhokamalar olib borishga kelishildi.

TIMSS ( Trends in International mathematics and science study ) 4-8- sinf o’quvchilarining matematika va tabiiy yo’nalishdagi fanlardan o’zlashtirish darajasini baholash dasturi bo’lib, bu tadqiqot to’rt yilda bir marta o’tkaziladi.

TIMSS xalqaro baholash dasturida 4-8- sinf o’quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo’yicha egallagan bilim darajasi va sifatini solishtirish hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlash bilan bir qatorda, qo’shimcha ravishda makkablarda matematika va tabiiy fanlar bo’yicha berilayotgan ta’lim mazmuni, o’quv jarayoni, ta’lim muassasasining imkoniyatlari, o’qituvchilar salohiyati, o’quvchilarning oilalari bilan bog’liq omillari o’rganiladi.

TIMSS dasturi o’zining 1-tadqiqotini 1995-yilda boshlagan bo’lib, 2019-yilga qadar har 4 yilda 1999, 2003, 2007, 2011, 2015 va 2019-yillarda tashkil etib kelindi. Navbatdagi 8-davriylik 2023-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Dasturda qatnashayotgan davlatlar soni tobora ortib bormoqda, buni 2015-yildagi TIMSS tadqiqotida 57 ta mamlakat qatnashgan bo’lsa, 2019-yilda bu ko’rsatkich ortib, 60 dan ortiq davlatni tashkil etganida ham

ko'rish mumkin. TIMSS 2015 tadqiqot natijalariga ko'ra, AQSH, Singapur, Gonkong, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Rossiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning ta'lif tizimi eng yuqori ko'rsatkichlarni egallagan.

PIRLS va TIMSSni bir-birini to'ldiruvchi dasturlar deb e'tirof etish mumkin. PISA va TIMSS tadqiqotlarini, ularning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida o'quvchilarning matematik savodxonligini baholashini inobatga olinsa, Respublikamizda matematika sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarga ham hamnafas bo'ladi deb aytish mumkin.

O'zbekiston TIMSS va boshqa xalqaro tadqiqotlarda qatnashish orqali rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'z ta'lif tizimida qo'llash, o'z natijalarini boshqa davlat natijalari bilan qiyosiy taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tadqiqotda yurtimizning 4-8-sinf o'quvchilari boshqa davatlardagi tengdoshlariga nisbatan matematika va tabiiy fanlardan savodxonligi qay darajada yuqori? Matematika va tabiiy fanlar 4-8-sinf o'quvchilari uchun qiziqarli fanmi? Oila tomonidan farzandlarga matematikani va tabiiy fanlarni o'zlashtirishda qanday hissa qo'shilmoqda? Bugungi kunda bizning mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish jarayoni qanday tashkil etilgan? O'zbekiston matematika va tabiiy fanlar o'qitish jarayonining boshqa davatlarga nisbatan o'ziga xosligi bormi, agar bo'lsa u nimalarda namoyon bo'ladi? Mamlakatimizda matematika va tabiiy fanlarni o'qitish bo'yicha o'qituvchilar metodlari boshqa mamlakatlar o'qituvchilari metodlaridan nimasi bilan farq qiladi ? kabi asosiy masalalar o'rganiladi va tadqiq etiladi.

Tadqiqotning har 4 yillik davriyiligida uzluksiz ravishda ishtiroy etish global miyosda mamlakatimiz ta'lif tizimining samaradorligini kuzatib boorish imkonini beradi. Ushbu dasturlar O'zbekiston Respublikasi milliy baholash tizimini takomillashtirish, kompetensiyaviy tizimini joriy qilish orqali ta'lif sifatini oshirishga xizmat qiladi. Biz bu tadqiqotga rejali ravishda tayyorgarlik ko'rishimiz zarur. Ko'p hollarda davlatdagi ta'lif sifati undagi xalqaro tadqiqotlariga ham qarab berilishi mumkin. Yuqori 50 tahlil davlat ro'yhatiga kirish uchun ham tizimli tadqiqotlar olib borish kerak. Nafaqat milliy tanlov va loyihibar , balki global olib boriladigan musobaqa va tadqiqotsrda yuqori natijaga erishish uchun yetarli ravishda o'quvchilar bilan shug'ullanish lozim.

Eng avvalo, matematika va tabiiy fanlarga katta e'tibor berish kerak. Agar ular 4-sinfga boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lishsa, bu yaxshi. Kelajakda 8- sinf bo'lganlarida so'nggi 4 yil davomidagi o'qitish tizimi qanchalik foydali bo'lganligi haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. 4-8- sinf oralarida , ya'ni 4 yil davomida ular qiyangan mavzuni yetarlicha tushuntirib , izohlab berishga ehtiyoj sezilishi mumkin. Albatta bu kelajakda foydasini beradi. 4-8-- sinf oraliq'idagi o'quvchilar bilim saviyasini shu usulda tekshirish orqali ta'lif tizimining yutuq va kamchiliklari haqida ma'lumotga ega bo'lamiz. Kelgusida yanada ko'p tadqiqotlar olib borish uchun, yuqorida aytilgan xatolarga yo'l qo'ymaslikka harakat qilinadi

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi matbuot xizmati.
2. " Yangi O'zbekiston " gazetasi
3. uzedu.uz sayti